

HOZIRGI ADABIY JARAYONDA BOLALAR ADABIYOTINING O'RNI

Saidova Mahzuna Farhod qizi

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti
yo'nalishi 3-bosqich 2.22-guruh talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi adabiy jarayonda bolalar adabiyoti yosh avlodning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida tutgan o'rni, uning asosiy funksiyalari va jamiyat rivojlanishiga ta'siri tahlil qilinadi. Bolalar adabiyotining estetik, tarbiyaviy hamda ma'rifiy ahamiyati yoritilib, uning hozirgi zamon o'zbek adabiyotidagi holati o'rganiladi. Tadqiqot jarayonida zamonaviy bolalar adabiyotining muammolari va rivojlantirish yo'llari ham ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: bolalar adabiyoti, adabiy jarayon, tarbiya, estetik, Anvar Obidjon, Xudoyberdi To'xtaboyev, yosh avlod, kamolot.


Abstract. This article analyzes the role of children's literature in the spiritual and moral education of the younger generation in the current literary process, its main functions and impact on the development of society. The aesthetic, educational and educational significance of children's literature is highlighted, and its status in contemporary Uzbek literature is studied. The research also examines the problems and ways of development of modern children's literature.

Keywords: children's literature, literary process, education, aesthetics, Anvar Obidjon, Khudoyberdi Tokhtaboyev, young generation, maturity.

Bolalar adabiyoti – bolalar va o'smirlar uchun yozilgan badiiy, ilmiy, publitsistik asarlardir. U har qanday jamiyat madaniy hayotining ajralmas qismi bo'lib, yosh avlod ongini shakllantirish, ularning ma'naviyatini boyitish va estetik didini tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda bolalar adabiyoti rivojining yangi bosqichiga guvoh bo'layotganimiz bois, ushbu sohaga e'tibor yanada kuchaymoqda. XXI asr bolalar adabiyotida an'anaviy va innovatsion usullar uyg'unlashib, raqamli texnologiyalar ta'sirida yangi shakllar paydo bo'lmoqda. Bolalar uchun asar yaratishdek mashaqqatli va qutlug' ishga umrini bag'ishlagan Ilyos Muslim, Po'lat Mo'min, Qudrat Hikmat, Hakim Nazar, Kavsar Turdiyeva, Tursunboy Adashboyev, Anvar Obidjon, Dilshod Rajabov, Hamza Imomberdiyev, Abdusaid Ko'chimov kabi adiblarning yaratgan asarlari orqali o'zbek bolalar adabiyotining yosh avlod dunyoqarashini shakllantirishdagi muhim o'rni ko'zga

tashlanadi. Negaki, istiqlol davri o‘zbek bolalar adabiyotida mavzularning rang-barangligi, g‘oyaviy dolzarbligi, obrazlarning sodda va murakkabligi yetuklashadi. Yangi voqelikni o‘zida aks ettirayotgan adabiy ijod namunalarini hozirgi bolalar adabiyotining eng oliy yutug‘i deya olamiz.

XX asrning 30-80-yillarida bolalar adabiyotining asosiy xususiyatlari:¹⁴⁶



Mustaqillik davri o‘zbek adabiyoti hayotni o‘rganishning, bilishning asosiy vositasi sifatida muhim ahamiyatga ega. U yosh avlodning ruhiyatini sinchiklab o‘rganishga, fikrlash doirasini kengaytirishga, his-tuyg‘ularning shakllanib borishiga ko‘maklashadi.

Bolalar adabiyoti yildan yilga rivojlanib bordi. 30- yillarga kelib, she‘riyatda Zafar Diyor, Adham Rahmat, Ilyos Muslim, Shukur Sa’dulla, Sulton Jo‘ra, Mahmuda Oqilova, Quddus Muhammadiy, nasrda Majid Fayziy, Dorjiya Oppoqova kabi bolalar ijodkorlari yetishib chiqdilar, Sadriddin Ayniy, G‘afur G‘ulom, Hamid Olimjon, Oybek, Elbek, Shokir Sulaymon va G‘ayratiylar ham o‘zbek bolalar adabiyotini yuksaltirish ishiga munosib hissalarini qo‘shdilar. Bu davrda qardosh xalqlar adabiyotidan ko‘plab asarlar o‘zbek tiliga tarjima qilindi. Natijada o‘zbek bolalar adabiyoti har tomonlama boyib bordi. Ayniqsa, “Yer

¹⁴⁶ [Safarov O., Barakayeva R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. [Matn]: darslik. –Toshkent: “Shafolat Nur Fayz” nashriyoti, 2022. – 320 b.

yuzi”, “Bolalar yo‘ldoshi”, “Bolalar dunyosi”, “O‘zgarishchi yoshlar”, “Yosh kuch” kabi oynomalar chiqishi bolalar adabiyotining har tomonlama rivojlanishiga sabab bo‘ldi. Uning mavzu doirasi kengaya bordi. Yoshlik, maktab hayoti, ona yurt tabiati, xalqlar do‘stligi, ilm, hunar va texnikaga muhabbat mavzulari bolalar adabiyotidan keng o‘rin oldi.¹⁴⁷

Darhaqiqat, 30-yillarda bolalar adabiyoti ancha rivojlanib, yangi ijodkorlar yetishib chiqdi. O‘zbek adabiyotining taniqli yozuvchi va shoirlari ham bolalar uchun asarlar yaratishga e‘tibor berishdi. Shu bilan birga, boshqa xalqlarning bolalar uchun yozilgan kitoblari o‘zbek tiliga tarjima qilindi, bu esa adabiyotning yanada boyishiga olib keldi. Maxsus bolalar jurnallari va gazetalar chop etilishi ham bolalar adabiyotining taraqqiyotiga katta hissa qo‘shdi. Natijada, bu adabiyotning mavzu doirasi kengayib, unda yoshlik, maktab, tabiat, ilm-fan va texnika kabi muhim mavzular yoritila boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov mustaqillikning ilk yillaridayoq jamiyat taraqqiyoti, ravnaqi uchun ma‘nan va jismonan sog‘lom avlod tarbiyalash masalasini kun tartibiga qo‘ydi. Zero, har bir oqil insonning va jamiyatimizning muqaddas vazifasi, aytish mumkinki, umrining ma‘nosi qobil farzandlar o‘stirish, ularni ham jismoniy, ham ma‘naviy jihatdan mukammal qilib tarbiyalash, kamolini ko‘rish, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli kishilar etib voyaga yetkazishdan iboratligi haqidagi ta‘kidlar bejiz emasdi.¹⁴⁸

Haqiqatan ham mustaqillik davri bolalar adabiyotining mazmun-mohiyati, yosh avlod qahramonlari xarakteri tahlili, shakl va mazmun jihatdan muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga yangi asr kichkintoylarining qiziqishlari, ruhiy, ma‘naviy olami asarlar tahlili orqali o‘quvchilarda axloqiy tarbiya, siyosiy tarbiya, ijtimoiy tarbiyani rivojlantirishga ahamiyat berilayotgani tahsinga loyiq. Xususan, mustaqillik davri bolalar adabiyotida jamiyat tarqqiyoti bilan bog‘liq mavzu talqinlari ustuvorligi Safar Barnoyeva, Tohir Malik asarlarida, kichkintoylar va bolalar xulqidagi xarakter xususiyatlarining yumoristik, satirik, hajviy, fantastik, sarguzasht ifodasi Anvar Obidjon, Xudoyberdi To‘xtaboyev kabi olimlar ijodida, bolalarning va o‘smirlarning murakkab ruhiyati, ya‘ni psixologizmi teran aks etgan asarlar, tabiat va jamiyat muammolari Tursunboy Adashboyev, Nosir Fozilov, Miraziz A‘zamlarning badiiy ijod namunalarida o‘z aksini topgan. Bunda asrimiz avvalidayoq bolalar asarlarining ma‘rifiy, g‘oyaviy, badiiy, falsafiy jihatdan har tomonlama ilmiy yoritish, tahlilga oid salmoqli tadqiqotlar, risolalar, maqolalar vujudga kela boshlagani

¹⁴⁷ [Ubaydullayev I. O‘zbek bolalar adabiyoti. Maqola. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES jurnali. 2021. 78-82 b.

¹⁴⁸ [Safarov O., Barakayeva R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. [Matn]: darslik. –Toshkent: “Shafolat Nur Fayz” nashriyoti, 2022. – 320 b.

muhim ahamiyatga ega edi. Bir qator adabiyotshunos olimlar o'zbek bolalar adabiyoti tarixi va muammolarini yangicha fikri, g'oyasi nuqtayi nazaridan o'rganish kerakligini asoslab berishdi.

Istiqlol davri yangi bolalar adabiyotining maydonga kelishiga 80-yillarning 2-yarmi katta ta'sir ko'rsatdi. Xuddi shu davrda bolalar adabiyotimiz mukammal ma'nodagi haqiqatga tik boqadigan adabiyotga aylandi, yosh avlodni erksevarlik tuyg'ulari ruhida tarbiyalashda ilk qadamlarini qo'ydi. Bu ishga badiiy so'z qudrati bilan hissa qo'shib kelayotgan iste'dodli yozuvchilarning yangi avlodi yetishib chiqqanligi e'tirofga sazavor. Ya'ni Anvar Obidjon, Abdurahmon Akbar, Qo'zi Ismoil, Vali Ahmadjon, Rustam Nazar kabi ijodkorlarning bolalar adabiyotiga yangicha tus olib kirishlari e'tibor qozondi.

Bolalar adabiyotining ijtimoiy va madaniy funksiyalari. Bolalar adabiyoti avvalo, tarbiyaviy, ma'rifiy va estetik ahamiyatga ega bo'lib, yosh kitobxonning dunyoqarashini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. O'zbek bolalar adabiyotida xalq og'zaki ijodi an'analari bilan zamonaviy realistik tasvir uyg'unlashgan bo'lib, unda insonparvarlik, vatanparvarlik, ezgulik kabi g'oyalar ilgari suriladi. Bunga misol qilib Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarini olishimiz mumkin. Chunki, unda Hoshimjonning sarguzashtlari orqali bolalar real va fantastik dunyo uyg'unligida ezgulikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishi, hayotiy saboqlari kabi tarbiyaviy hamda insoniy fazilatlarini yaqqol namoyon etilganini ko'rishlari mumkin.

Hozirgi adabiy jarayonda bolalar adabiyotining rivojlanish yo'nalishlari: XXI asr bolalar adabiyoti yangi mavzu va janrlarga boyib, innovatsion yondashuvlar asosida shakllanmoqda. Bugungi kunda quyidagi yo'nalishlar dolzarb hisoblanadi:

➤ Ekologik yo'nalish – atrof-muhit muammolarini yorituvchi asarlar. Bunga Quadrat Hikmatning "Asfalt va men", "Bahor" she'rlarini misol qilib olamiz. Unda fasllarning, tabiat va tabiat hodisalarining tasviri chiroyli talqin qilingan.

➤ Psixologik yo'nalish – bolalarning hissiy holatini inobatga oluvchi adabiyotlardir. Bu yo'nalishga Quadrat Hikmatning "Ajoyib" she'ri, Hakim Nazirning "So'nmas chaqmoqlar", "Tohir-Zuhra qissasi", "Dadamni topib beringlar" asarlari misol bo'la oladi.

➤ Tarixiy-badiiy yo'nalish – bolalarga o'z tarixini anglatish maqsadida yozilgan asarlar. Nosir Fozilovning "Qush qanoti bilan", Hakim Nazirning "Lochin qanotlari" romani, Mirkarim Osimning "Alisher Navoiy va Darveshali", "Navoiyning xislatlari", "Ulug'bek va Navoiy" kabi asarlarni kiritamiz.

➤ Fantastik va ilmiy-ommabop adabiyot – zamonaviy texnologiyalar va ilmiy yutuqlarni aks ettirishdir. Bunga Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sehrlil qalpoqcha", "Sariq devni minib", "Sariq devning o'limi" asarlarini misol qilib keltiramiz.

Zamonaviy bolalar adabiyotining muammolari. Bugungi kunda bolalar adabiyotida bir qancha muammolar kuzatilmoqda:

- ✓ sifatli asarlarning yetishmovchiligi – bugungi kundagi bolalar uchun mos badiiy adabiyot hajmi yetarli emas;
- ✓ tarjima adabiyotning ustunligi – xorijiy adabiyot tarjimasi milliy bolalar adabiyoti rivojiga ta’sir qilmoqda;
- ✓ elektron va raqamli formatning ta’siri – an’anaviy kitobxonlikdan elektron o‘qishga o‘tish jarayoni bolalar kitobxonligiga o‘z ta’sirini o‘tkazmoqda.

Bolalar adabiyotining istiqbollari. Bolalar adabiyotini rivojlantirish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi lozim:

- Zamonaviy mualliflarni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish;
- bolalar uchun maxsus nashr va elektron platformalar yaratish;
- ta’lim muassasalarida bolalar adabiyotining o‘qitilishini kuchaytirish.

Xulosa qilib aytganda, bolalar adabiyoti jamiyat taraqqiyotining muhim qismidir. Bugungi kunda uni rivojlantirish uchun sifatli asarlarni yaratish, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash, elektron kitob va multimedia mahsulotlaridan samarali foydalanish lozim. O‘zbek bolalar adabiyotining boy an’analarini zamonaviy talablar asosida qayta ishlash va yangi janrlarni rivojlantirish orqali bolalar uchun yanada qiziqarli va foydali adabiyot yaratish mumkin. Kelajakda bolalar adabiyotini yanada rivojlantirish uchun mualliflar va noshirlarning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, maktab va oilada bolalar kitobxonligini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim. Yosh avlodning ruhiy va ma’naviy kamoloti uchun bolalar adabiyotini nafaqat qiziqarli, balki hayotiy saboqlarga boy qilish ham muhimdir. Shu boisdan, zamonaviy texnologiyalar va an’anaviy adabiy yondashuvlarni uyg‘unlashtirgan holda, bolalar uchun mazmunli hamda estetik jihatdan boy adabiyot yaratish dolzarb vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jamilova B. O‘zbek bolalar adabiyoti. [Matn]: o‘quv qo‘llanma. – Toshkent: “Noshir” nashriyoti, 2019. – 312 b.
2. Safarov O., Barakayeva R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. [Matn]: darslik. – Toshkent: “Shafoat Nur Fayz” nashriyoti, 2022. – 320 b.
3. Ubaydullayev I. O‘zbek bolalar adabiyoti. Maqola. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES jurnali, 2021. 78-82 b.
4. www.ares.uz
5. www.conferencea.org
6. www.ziyo.uz.com